

O'zbekistonda Inson Huquqlari: Amaldagi Qonunlar Va Ularning Ijrosi

Rafikova Muattar Ravshanovna

Bojxona instituti Umumhuquqiy fanlar kafedrasida dotsenti, bojxona xizmati podpolkovniki, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Mardonov Firdavs Sirojiddin o'g'li

Bojxona Instituti BI 324-guruh kursanti

Anotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistondagi inson huquqlari bo'yicha amaldagi qonunlar va ularning ijrosi tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqiy kelishuvlarning huquqlarni himoya qilishdagi o'rni, shuningdek, so'nggi islohotlar, jumladan, sud tizimi va siyosiy erkinliklar borasidagi o'zgarishlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, demokratiya, gender tengligi, sud tizimi, inson qadri, Miranda qonunchiligi, Habeas corpus akti, pro bono, implementatsiya.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi qonunchilik so'nggi yillarda sezilarli darajada takomillashtirildi.

Davlat mustaqillikka erishgandan keyin, inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. O'zbekistonning xalqaro huquqdagi asosiy tamoyillariga, shu jumladan inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan siyosati va amaliyoti aholi farovonligini oshirishda muhim o'rin egalladi.

Inson huquqlari-bu insonning tug'ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir. Ushbu universal huquqlar millati, jinsi, irqi yoki etnik kelib chiqishi, rangi, dini, tili yoki boshqa huquqiy maqomidan qat'i nazar, hech qanday kamsitishlarsiz barcha uchun xosdir. Inson huquqlari yashash huquqi kabi eng asosiy huquqlardan boshlab, munosib turmush tarzini ta'minlashga xizmat qiladigan ta'lim olish, mehnat qilish yoki ijtimoiy ta'minot olish kabi huquqlariga qadar barcha huquqlarni qamrab oladi.[2]

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning asosiy huquqiy hujjati bo'lib, unda har bir fuqaro uchun tenglik, erkinlik va huquqlari kafolatlangan. Konstitutsiya 22-moddasida "Insonning huquqlari va erkinliklari himoya qilinadi"[1] deb belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston ko'plab xalqaro huquqiy kelishuvlarni ratifikatsiya qilgan, masalan, BMTning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"[4], "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt va "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi pakt kabi hujjatlar hisoblanadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston qonunlari asosida fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan qator hujjatlar mavjud. Bularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi farmoni va boshqa normativ huquqiy hujjatlar kiradi. Shuni aytishimiz joizki O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 30-apreldagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa

daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”[1] deb belgilanib, inson qadri yanada mustahkamlangan. Undan tashqari demokratik huquq va erkinliklar konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi, deb belgilab qo'yilgan. Shuningdek, 19-54-moddalarda inson huquqlari, erkinliklari va ularni himoya qilishga doir normativ-huquqiy tamoyillar keltirilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqaro teng huquqliligi xalqaro miqyosda tan olingan huquqshunoslik institutlari-“Xabeas korpus”, “Miranda qonunchiligi” shuningdek, “Pro bono” yani bepul yuridik yordam mustahkamlangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari bo'yicha milliy markazni tashkil etildi, bu esa inson huquqlarining himoya qilinishiga doir milliy va xalqaro tadbirlarni muvofiqlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Xabeas korpus - insonning ozodligini himoya qilishga qaratilgan muqaddas huquqdir. Bu huquq, agar biror kishi noqonuniy ravishda hibsga olingan bo'lsa, sudga murojaat qilish va hibsnig qonuniyligini tekshirish imkoniyatini beradi.[8]

Miranda qonunchiligi - bu shaxslarning huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan qonun bo'lib, ularning so'roq paytida o'z huquqlaridan xabardor bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu qonun ayblovlangan shaxslarning erkinligini va noqonuniy so'roqlardan himoyasini kafolatlaydi.[9]

Pro bone - bu yuridik xizmatlarning bepul taqdim etilishi, asosan kam ta'minlangan yoki huquqlari buzilgan shaxslarga yordam ko'rsatishga qaratilgan. Bu huquqshunoslar uchun jamiyatga xizmat qilishning muhim shaklidir.[3]

O'zbekistonda inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, ba'zi muammolar hamon mavjud. Ulardan ba'zilari quyidagilardir:

Sud tizimi: Sudlar mustaqilligini ta'minlash va sud amaliyotida adolatli qarorlar qabul qilishda ba'zi qiyinchiliklar, mavjud. Shuni aytishimiz joizki sudlarning o'z faoliyatiga aralashuvidan mustaqilligi to'la ta'minlanmagan, sudyalar o'rtasida qonunga zid harakatlar sodir qilish, korrupsiya, insonlarning tashvishlariga befarqlik, adolat qonunlarini buzuvchi qarorlar qabul qilish holatlari uchrab turadi, ishlarni o'z vaqtida ko'rib chiqmaslikka va sarsongarchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash va odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyatga aralashganlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi qoidasini amalga oshirish sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasidagi davlat siyosatining ustuvorliklaridan biri bo'lib hisoblanadi. Sudlarning huquqiy ta'siri va ularning inson huquqlarini himoya qilishdagi roli ham izchil rivojlanishi kerak.

Majburiy mehnat va bolalar mehnati: Xalqaro tashkilotlarning va huquqiy nazoratning kuchaytirilishiga qaramay, O'zbekistonda ayrim sohalarda majburiy mehnat va bolalar mehnati hali ham mavjud. Bu holatlarni to'liq bartaraf etish uchun muayyan chora-tadbirlar zarur. Shu sababli Majburiy mehnat va bolalar mehnatini tugatish bo'yicha xalqaro standartlarni mamlakat hayotiga to'liq tatbiq etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi 349-son “O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasida inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida majburiy mehnatning oldini olish va unga to'liq barham berishga doir aniq hamda amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Gender tenglik: Ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi o'rni to'g'risidagi masalalar hali ham dolzarb. Ayrim hududlarda ayollarni ishga joylashtirish, ta'lim olish va ijtimoiy faollikni oshirishda muammolar mavjud. Shu bois mamlakatda ayollar huquqlarini himoya qilishga katta etibor qilinmoqda. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash uchun hukumat, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati birgalikda ishlamoqda. Shuningdek, O'zbekistonda 2020 yilda "Ayollarni qo'llab-quvvatlash va gender tengligini ta'minlash" dasturi qabul qilindi, bu esa ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, genderga oid stereotiplar, ayrim tumanlarda ayollarga nisbatan zo'ravonlik va uy sharoitida ayollarning kamroq erkinligi kabi muammolar hali ham dolzarb hisoblanadi.

O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, xususan, sud islohotlari va ijtimoiy sohada keng ko'lamli o'zgarishlar, aholini huquqiy himoya qilishni yanada

kuchaytirishga qaratilgan. 2017-yilda “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” qabul qilindi, bu hujjat inson huquqlari bo‘yicha davlat siyosatini yangilashga qaratilgan.[6]

Bundan tashqari so‘nggi yillarda mamlakatimizda “Inson qadri uchun” degan g‘oya ilgari surilmoqda va bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[5] farmoni qabul qilinib, natijada inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yanada faollashdi, inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlar milliy qonunchilikka implementatsiya qilindi hamda davlat organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatiga tatbiq etildi.

O‘zbekistonda inson huquqlarini rag‘batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2017—2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta‘minlash sohasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.[5] Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” qabul qilindi. Ushbu hujjatda yaqin va o‘rta istiqbolda O‘zbekistonning taraqqiyot tendensiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks rivojlantirish yo‘nalishlari aniq belgilab berildi.[7]

O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Amaldagi qonunlar va xalqaro me‘yorlarga moslashish orqali inson huquqlari sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Biroq, bu yo‘lda hali amalga oshirilishi kerak bo‘lgan islohotlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mavjud. Sud tizimini mustahkamlash, erkinlik va huquqlarni to‘liq ta‘minlash uchun O‘zbekistonning qonuniy siyosatini yanada rivojlantirish zarur.

Shu bilan birga, inson huquqlarini himoya qilishda davlat, jamiyat va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish O‘zbekistonda huquqiy demokratik jamiyatni shakllantirishning asosiy yo‘li bo‘lib qoladi.

O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar va qonunlar ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda. Biroq, qonunlarning to‘liq ijrosi, ayniqsa, sud tizimi va siyosiy erkinliklar sohasida muammolar saqlanib qolmoqda. Inson huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish uchun sud tizimini mustaqilligini oshirish, siyosiy erkinliklarini va so‘z erkinligini taminlash, xalqaro standartlarga mos siyosiy va huquqiy muhitni shakllantirish zarur. Shu tarzda, O‘zbekiston inson huquqlari sohasida o‘zgarishlarni davom ettirishi va xalqaro talablar bilan hamohang bo‘lishi lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi yutuqlari so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortdi. Yangi Konstitutsiya, milliy strategiyalar va xalqaro hujjatlarning qabul qilinishi bu boradagi ijobiy o‘zgarishlarning namunasi sifatida baholanadi. Biroq, sud mustaqilligi, majburiy mehnat va bolalar mehnati, shuningdek ayollarning gender tengligi kabi dolzarb muammolar hali ham mavjudligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, kelajakda qonunlarning samarali amaliy ijrosini ta‘minlash va xalqaro huquqiy standartlarga to‘liq mos siyosat yuritish zaruriyati davom etmoqda. Bu yo‘nalishda davom etadigan islohotlar O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi pozitsiyasini yanada mustahkamlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel
2. Yusupova F. “Inson huquqlari” Toshkent-2024. 7-bet
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” 1966-yil 16-dekabr

4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217-A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi". 1948-yil 10-dekabr
5. 22.06.2020-yildagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"ги PF-6012-son Farmoni
6. "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" 2017-yil 7-fevral PF-4947 son Farmoni
7. 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF–60-son Farmoni
8. Angliya parlamenti tomonidan qabul qilingan "Habeas Corpus Act" 1679-yil 27-may
9. "Miranda qonunchiligi" 1966-yil 13-iyunda AQSh Oliy sudi tomonidan qabul qilingan.